

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLARGA TA'SIRI

Azamatov Alisher Adham o'gli

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ular nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsiy qarashlar, hayotiy qadriyatlar va dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchga ega. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasi, ularning o'z-o'zini idrok etishiga va boshqalar bilan munosabatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga keladigan salbiy va ijobiy jihatlari, virtual haqiqat va real dunyo o'rtasidagi farq ham ko'rib chiqiladi. Tarmoq foydalanuvchilari o'rtasida axborot almashinuvi, do'stlik munosabatlari va maqsadlar o'rtasidagi bog'liqlik hamda tarmoqda yaratiladigan identifikatsiya jarayonlari ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqot yoshlar ta'limi va ularning psixologik salomatligi uchun zarur bo'lgan yangi yondoshuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, psixologik ta'sir, shaxsiyat, identifikatsiya, virtual haqiqat, onlayn munosabatlar, axborot almashinuvi, shaxsiy qarashlar, psixologik salomatlik.

Ilgari nazoratsiz bo'lgan bolalar ko'cha-ko'ya turli bezorilarga qo'shilishib, jinoyatchiga aylanadi. Hozir esa ertalabdan-kechgacha "beozorgina" bo'lib kompyuter va Internetdan bosh ko'tarmaydigan avlod paydo bo'ldi, ular qanday narsalarni ko'rayotganligi ko'pincha otionalarni qiziqitirmaydi. Afsuski, aynan mana shu beparvolik mudhish oqibatlariga olib kelmoqda. 2015 yilda Chelyanbinsk viloyatida 15 yoshli Anton Sh. ismli ota-onasini pichoqlaydi. Bunga esa onasining unga hadeb kompyuter o'ynab o'tiravermasdan, dars qilishni buyurgani sabab bo'ldi. Kuniga 8 soatlab turli qotilliklar tasvirlanuvchi kompyuter o'yinlarini o'ynash natijasida maktabda "a'lo" baholarga o'qigan, fanlar olimpiadasi ishtirokchisi qotilga aylandi. Onasining so'zlaridan g'azablangan Anton oshxonaga kirib pichoq oldi va ota-onasiga tashlandi. Ona jon berdi, otasining esa hayoti saqlab qolindi. Volgagradada 16 yoshli Lyosha R. buzilib qolgan kompyuterini tuzatish uchun pul bermagani uchun onasini bolta bilan chopib tashladi.[1] Virtual o'yinlarda "qotilliklar" qilishning hadisini olgan o'smir onasining jasadini hovlisi yaqiniga olib borib ko'mib qo'ydi. O'gay opasiga esa onasining qarindoshlarinikiga ketganini aytdi. Bir necha kundan keyin ota tashvishlanib, politsiyaga xabar berdi. Ayolning jasadi 12 kundan keyin topildi. Krasnodarda 15 yoshli Yaroslav M. otasini unga kompyuter o'ynashni taqiqlagani sababli, o'ldirgani uchun 8 yilga ozodlikdan mahrum qilindi. Otasi uni darslarga bormay qo'ygani uchun urishib, kompyuterning klaviaturasini yashirib qo'yadi. Yraslav yarim tunda uxlab yotgan otasining boshiga kuvalda bilan bir necha marta zarba beradi. So'ng onasiga agar klaviaturani topib bermasa, uni ham o'ldirishini aytdi. Daxshatga tushgan ona unga klaviaturani topib beradi. O'g'il bamaylixtir xonasiga kirib, yana o'yin o'ynashga tushadi. Ona politsiya va tez yordamga qo'ng'iroq qiladi. [2].Tez yordam etib kelganida ota allaqachon jon berib bo'lgandi. U nimani so'rasa olib bergan... Ijevskda 17 yoshli yigit onasining qotiliga aylandi. U butun kunini Internetda o'tkazar, turli onlayn o'yinlari o'ynardi. U hattoki xonasidan kunlab chiqmay qo'ydi, ovqatni ham xonasida eydigan bo'ldi. Sabr kosasi to'lgan ota uning kompyuterini olib qo'ymoqchi bo'lganida yigit otasini pichoqladi. Kemerovada 14 yoshli Sasha K. kompyuterda o'yin o'ynayotganida chalg'itgani uchun 20 yoshli opasini g'isht parchasi bilan urib o'ldirdi. Sashaning o'qituvchilari u maktabda juda yaxshi o'qigani, lekin keyingi 6 oyda o'zlashtirishi pasayganini bildirishdi. Petrozavodskda 22 yoshli yigit 80 yoshli buvisini kaltakladi. Tergov paytida u "Buvim kompyuter o'ynashimga xalaqit bergani uchun kaltakladim" dedi.[3]

Xitoyda tinimsiz 19 soat kompyuter o'ynagan yigit kompyuteri oldida jon berdi. Boshqiristonda oyog'i sinib qolib uyida davolanayotgan 17 yoshli o'smir 22 kun kompyuter o'ynagach, vafot etdi. Tayvanda 32 yoshli kishi 3 sutka tinimsiz kompyuter o'ynagani oqibatida yuragi ushlab qolib vafot etdi. Xitoyning Nantun shahrida yashovchi 19 yoshli yigit kompyuter o'ynash kasalligidan qutulish uchun o'z qo'lini kesib tashladi. Bunday salbiy holatlarni O'zbekistonda ham uchratish mumkin.

Bolalarning kompyuter va internetga tobe bo'lib qolishlariga aksariyat hollarda ota-onalarning o'zlari sababchi bo'lib qolmoqda. Farzandga ortiqcha mehr ko'rsatish, uning barcha istaklarini muhayyo qilish va yoki aksincha, unga butkul e'tiborsiz bo'lish, uning yurish-turishi bilan qiziqmasdan bolalarning virtual olamga kiritib ketishlariga olib kelmoqda.[4]

Bugungi o'smirlar ertaga xalq bo'ladi. Ma'naviyati butun, o'z dunyoqarashiga ega, o'zgalar fikriga qaram bo'lmagan xalqning kelajagi buyuk bo'ladi. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida aynan ana shu muammolar echimiga qaratildi.

2016 yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin xuquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o'rtasida 8 mingdan ortiq ajratish qayd etilgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak. (1-jild, 508-bet). 2017 yili raqamli televidenie qamrovi 88 foizdan 100 foizga etkazildi. Mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 7 foiz oshib, 22,8 millionga etdi. 2017 yilda axborot texnologiyalari sohasida 7,7 trillion so'mlik yoki 2016 yilgiga nisbatan 26 foiz kam xizmat ko'rsatildi. Investitsiya dasturi doirasida 260 million dollar o'zlashtirildi.

Axborot texnologiyalari sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi Janubiy Koreyada 9 foiz, Yaponiyada 5,5 foiz, Xitoy va Hindistonda 4,7 foiz, O'zbekistonda atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Buni axborot-kommunikatsiya rivojlanish indeksi reytingidagi 176 mamlakat orasida O'zbekiston 95-o'ringa ekani ham isbotlab turibdi ("Xalq so'zi", 2018 yil 10 yanvar).

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi, ular nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsiyat va dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar o'zlarini ifodalash, yangi do'stliklar o'rnatish, axborot almashish va turli guruhlariga qo'shilish orqali o'z identifikatsiyasini rivojlantiradi. Biroq, bu jarayonlarning ba'zi salbiy oqibatlari ham mavjud, masalan, o'zini past baholash, stress va psixologik bosim. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning psixologik salomatligi va ta'limiga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun ularning ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatli tarzda boshqarish zarur. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun katta imkoniyatlar va xavflarni bir vaqtning o'zida taqdim etadi. Ular o'z bilimlarini oshirish, yangi do'stlar orttirish, o'zaro fikr almashish imkoniyatlarini yaratadi, lekin shu bilan birga psixologik muammolar, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi, kiberbullying va vaqtni behuda sarflash kabi salbiy ta'sirlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, ularga zararli ta'sirlardan himoya qilish va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlar berish zarur.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga ta'sirini optimallashtirish uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyat birgalikda ishlashlari lozim. Bu bilan yoshlar faqat ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda, balki o'z hayotlarida muvaffaqiyatga erishishda ham yaxshiroq yo'nalish topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 180 b.
2. Hanifa Haydarova .Dinshunoslik . O'quv qo'llanma.
3. Dinshunoslik.Majmua. Shahrisabz 2024.

4. “Xalq soʻzi”, 2018 yil 10 yanvar soni .
5. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
6. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
7. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
8. Ayonovna A. S., Xudoyberdi oʻgʻli P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
9. Ayonovna A. S., Xudoyberdi oʻgʻli P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
10. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
11. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
13. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
14. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
15. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
17. Ayonovna A. S. A. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO ‘LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 6.
- 18.Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
- 19.Бегалиев, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 538-546.